

Dusyorova Laylo Shoniyoz qizi,

Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti «13.00.01

– Pedagogika nazariyasi. Pedagogika ta'limotlar
tarixi» ixtisosligi 1-kurs tayanch doktoranti (PhD)

“MUSTAQIL TA'LIM” TUSHUNCHASI MAZMUNI VA NAMOYON BO'LISH SHAKLLARI

UOK: 374

[HTTPS://DOI.ORG/10.34920/SO/VOL_2025_ISSUE_3_6](https://doi.org/10.34920/so/vol_2025_issue_3_6)

DUSYOROVA L.SH-Q. “MUSTAQIL TA'LIM” TUSHUNCHASI MAZMUNI VA NAMOYON BO'LISH SHAKLLARI

Mazkur maqolada «mustaqil ta'lim» tushunchasining mazmun va mohiyati, ushbu tushunchaning ilmiy tadqiqotlarda o'rganilishi, mustaqil ta'lim olish maqsad va vazifalari, ko'rinishlari tahlil qilingan. Shuningdek, mustaqil ta'lim olish zaruriyati asoslangan.

Tayanch so'z va tushunchalar: mustaqil ta'lim, auditoriyadan tashqari mustaqil ta'lim, auditoriyadagi mustaqil ta'lim, Blended Learning, o'z-o'zini rivojlantirish.

ДУСЁРОВА Л.Ш-К. СОДЕРЖАНИЕ И ФОРМЫ ПРОЯВЛЕНИЯ ПОНЯТИЯ «САМОСТОЯТЕЛЬНОЕ ОБРАЗОВАНИЕ»

В данной статье анализируются содержание и сущность понятия «самостоятельное образование», его изучение в научных исследованиях, цели и задачи самостоятельного обучения, а также его формы. Кроме того, обоснована необходимость самостоятельного обучения.

Ключевые слова и понятия: самостоятельное образование, внеаудиторное самостоятельное образование, аудиторное самостоятельное образование, смешанное образование (Blended Learning), саморазвитие.

DUSYOROVA L.SH-K. CONTENT AND FORMS OF MANIFESTATION OF THE CONCEPT OF «INDEPENDENT EDUCATION»

This article analyzes the content and essence of the concept of «independent learning» its study in scientific research, the goals and objectives of independent learning, as well as its various forms. Additionally, the necessity of independent learning is substantiated.

Key words and concepts: independent learning, extracurricular independent learning, in-class independent learning, blended learning, self-development.

Kirish.

Jahon miqyosida talabalarda mustaqil ta'lim olish ko'nikmalarini rivojlantirish mexanizmlari bo'yicha ko'plab ilg'or tadqiqotlar, ta'lim yondashuvlarining yangilanishi va innovatsiyalar amalga oshirilmoqda. Mustaqil ta'lim olish, o'quvchilarning o'z bilimlarini o'z vaqtida va samarali tarzda olishiga yordam beruvchi asosiy ko'nikmadir. Bugungi kunda jahonning ilg'or universitetlarida onlayn va masofaviy ta'lim platformalari, masalan, Coursera, edX, Khan Academy va boshqalar talabalarga mustaqil ta'lim olish imkoniyatlarini bermocda. Blended Learning (Aralash ta'lim) modeli onlayn va offline o'qishning kombinatsiyasi, talabalarni mustaqil o'qish va o'qituvchi bilan yuzma-yuz muloqot qilish imkoniyatlarini birlashtiradi.

Mamlakatimizda so'nggi yillarda oliy ta'lim tizimida olib borilayotgan islohotlarda mustaqil ta'limga ham alohida e'tibor qaratilmoqda. Jumladan, O'zbekiston Respublikasining yangi tahrirdagi "Ta'lim to'g'risida"gi qonunida mustaqil ta'lim olish masalalari xususida quyidagicha ma'lumot keltiriladi: "...Mustaqil ta'lim olish yakka tartibda amalga oshiriladi hamda ta'lim oluvchilarni kasbiy, intellektual, ma'naviy va madaniy rivojlantirishga xizmat qiladi"¹. "O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish" Konsepsiyasining vazifalaridan biri sifatida quyidagilar belgilangan: "...Mustaqil ta'lim soatlari ulushini oshirish, talabalarda mustaqil ta'lim olish, tanqidiy va ijodiy fikrlash, tizimli tahlil qilish, tadbirkorlik ko'nikmalarini shakllantirish, o'quv jarayonida kompetensiyalarni kuchaytirishga qaratilgan metodika va texnologiyalarni joriy etish, o'quv jarayonini amaliy ko'nikmalarni shakllantirishga yo'naltirish, bu borada o'quv jarayoniga xalqaro ta'lim standartlariga asoslangan ilg'or pedagogik texnologiyalar, o'quv dasturlari va o'quv-uslubiy materiallarni keng joriy etish..."². Shuningdek, O'zbekiston Respublikasi "Oliy ta'limning davlat ta'lim standartini tasdiqlash to'g'risida"gi buyruqda bakalavriat va magistratura bosqichlarining o'quv rejalari va o'quv

dasturlarini o'zlashtirishda ta'lim oluvchilar auditoriya mashg'ulotlari bilan bir qatorda o'quv fanlari bo'yicha mustaqil mashg'ulotlarni bajarishi va mustaqil bilim olishi nazarda tutilishi lozimligi³ ta'kidlangan. Yuqoridagilardan kelib chiqib, biz tadqiqotimizda talabalarda mustaqil ta'lim olish ko'nikmalarini shakllantirish mexanizmlarini takomillashtirishga e'tibor qaratdik.

Maqolaning maqsadi "Mustaqil ta'lim" tushunchasining mazmun-mohiyatini ochib berish, ushbu tushunchaning ilmiy tadqiqotlarda o'rganilgan jihatlarini tahlil qilish, namoyon bo'lish shakllarini tizimli ravishda yoritish, mustaqil ta'limning ahamiyatini hamda zamonaviy ta'lim jarayonidagi o'rnini ilmiy asosda bayon etishdan iborat.

Asosiy qism. Mustaqil ta'lim (Independent Learning) – bu o'quvchilarning yoki talabalarining o'z bilimlarini mustaqil ravishda oshirish, yangi ma'lumotlarni o'zlashtirish va o'rganish jarayonini mustaqil tashkil etish qobiliyatidir.

MDH davlatlarida T.A.Solostina o'z tadqiqot ishida ta'lim sifatini ta'minlashda talabalarining mustaqil ishini boshqarishning nazariy asoslarini ko'rsatib, ta'lim sifatini ta'minlashda talabalarining mustaqil ishlarini boshqarishning modelini ishlab chiqadi⁴. Y.Y.Sokolova universitetda o'quv jarayoni strukturasida talabalarining mustaqil ishi, axborot-kutubxona ta'limida talabalarining mustaqil ishlarini optimalashtirish masalalarini yoritadi⁵. I.M.Vlasova o'z tadqiqotida talabalarining mustaqil ishi: uning o'quv jarayonida tutgan o'zni va roli, o'rta kasb-hunar ta'limi ta'lim muassasalarida o'quvchilarning mustaqil ishlarini tashkil etishda masofaviy texnologiyalar masalalarini yoritib beradi⁶. A.A.Verbitskiyning "Aktiv o'qitishning kontekstual yondashuvi" asari

³ "Oliy ta'limning davlat ta'lim standarti. Asosiy qoidalar" O'zbekiston Respublikasining davlat standartini tasdiqlash to'g'risida"gi 35-son buyruq, 2021-yil 19-oktabr.

⁴ Солостина Т.А. Обеспечение качества образования студентов средствами самостоятельной работы. Журнал «Науки об образовании» Ст.29-31

⁵ Соколова Е.Ю., (1998), Самостоятельная работа в процессе подготовки информационно-библиотечных кадров в вузах культуры, автореферат//Москва.

⁶ Власова И.М., (2006) Организация внеаудиторной самостоятельной работы студентов колледжа с использованием дистанционных технологий: на примере учебной дисциплины «Информатика», автореферат//Москва.

¹ O'zbekiston Respublikasi «Ta'lim to'g'risida»gi Qonuni yangi tahriri, 18-modda, 2020-yil 23-sentabr.

² O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-oktabrdagi «O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida»gi PF-5847-son Qarori.

mustaqil ta'lim va o'qitish jarayonlarining kontekstual jihatlarini o'rganishga bag'ishlangan¹. V.P.Bespalko "Ta'limning komponentlari va didaktik tizimlar" nomli asarida mustaqil ta'lim olish ko'nikmalarini shakllantirishda didaktik tizimlarning ahamiyatini batafsil yoritib bergan².

O'zbekistonda ham mustaqil ta'lim olish ko'nikmalari bo'yicha bir qancha ilmiy tadqiqotlar olib borilgan. Jumladan, M.U.Qo'chqarovning ilmiy tadqiqot ishida talaba mustaqil ishining o'rni hamda ahamiyati, mustaqil ta'lim mohiyati, uni tashkil qilish yo'llari va vositalari ko'rsatib berilgan³. O.A.Qo'ysinovning ilmiy izlanishlarida bo'lajak kasb ta'limi o'qituvchilarini tayyorlashda mustaqil ta'limni tashkil etishning nazariy asoslari, shakli, metodi va vositalari keng yoritilgan⁴. S.I.Qulmamatov ilmiy tadqiqotlarida Talabalar mustaqil ta'limini tashkil etishning pedagogik-psixologik jihatlarini, mustaqil ta'limni tashkil etishning holati va uni takomillashtirish yo'llari haqida so'z boradi⁵.

Mustaqil ta'lim tushunchasi haqidagi dastlabki fikrlar **J.H.Pestalotsi**, **J.Dewey**, **L.Vigotskiy** kabi pedagoglarning tadqiqot ishlarida uchraydi. Vigotskiy talabalarning o'z-o'zini rivojlantirishiga ahamiyat qaratgan va o'ziga xos "yaqin rivojlanish zonasi" nazariyasini ilgari surgan⁶. 1950-1960-yillarda *Benjamin Bloom* tomonidan taklif qilingan taksonomiya (Bloom taksonomiyasi) ta'lim maqsadlarini aniq belgilashga yordam berdi va mustaqil ta'lim tushunchasining nazariy asoslarini rivo-

jlantirdi⁷. Mustafa Of, Ismail Kiliçaslan nazariyalariga ko'ra "....o'rganish istagi har doim shaxsda mavjud. Muhimi, bu istakni hayotga olib keladigan muhitni yaratishdir..."⁸ Har bir ta'lim oluvchining, avvalo, o'rganishga bo'lgan rag'batini yuqori bo'lishi kerak. Shularni inobatga olgan holda o'rganuvchilar yangi bilimlarni o'zlashtirish uchun doim harakat qilishi va izlanishlari lozim. Darhaqiqat, o'rganish istagi va yaratilgan muhit benihoya kata rol o'ynaydi.

"Talabalar mustaqil ishining asosiy maqsadi nafaqat olingan bilim, ko'nikma va malakalarni mustahkamlash, kengaytirish va chuqurlashtirish, balki tashqaridan boshqalar yordamisiz mustaqil ravishda o'rganish va yangi materialni o'zlashtirishdir. Mustaqil ish har doim talabalar, ayniqsa birinchi kurs talabalarini uchun sobiq maktab o'quvchilarini ta'limning yangi shakllariga moslashtirish zarurati tufayli bir qator qiyinchiliklarni keltirib chiqargan va keltirmoqda"⁹. Darhaqiqat, endigina maktabni bitirib kelgan 1-kurs talabasida mustaqil ta'lim olish haqida tushuncha deyarli bo'lmaydi. Fan o'qituvchilari va tyutorlar ularning adaptatsiya jarayonida ko'mak berishlari juda muhim hisoblanadi.

Mustaqil ta'lim – ta'limni tashkil etish shakllaridan biri bo'lib, bunda talabalar o'z oldilariga u yoki bu vazifalarni, maqsadlarni ongli ravishda qo'yib, faoliyatni rejalashtiradi va uni amalga oshiradi hamda o'z-o'zini baholaydi.

Mustaqil ta'lim – o'qituvchining topshirig'i va uning rahbarligida o'quv vazifasini hal etadigan ta'limni tashkil etish shakli. Mustaqil ish bu qo'yilgan maqsad bilan bog'liqlikda talabalarning aniq faoliyatini tashkil etish va amalga oshirishdir. Talabalarning mustaqil ishlari ularning yuqori darajadagi faollik, ijodiylik, mustaqil tahlil, tashabbuskorlikka asoslangan faoliyatlaridir.

¹ Вербицкий А.А. (1991). Активное обучение: контекстуальное подхход. Педагогика//Москва.

² Беспалько В.П. (1989). Компонент обучения и дидактические систем. Педагогика//Москва.

³ Qo'chqarov M.U., (2019) Talabalarda mustaqil ta'lim olish ko'nikmalarini rivojlantirish nazariyasi va texnologiyasi, avtoreferat//Nukus.

⁴ Qo'ysinov O.A., (2008), Kasb ta'limi yo'nalishi bakalavr o'qituvchilarini tayyorlashda mustaqil ta'limning ilmiy-metodik asoslari, avtoreferat//Toshkent.

⁵ Qulmamatov S.I., (2008), Mustaqil ta'limni tashkil etishda komputer texnologiyalaridan foydalanish metodikasi (Informatika va axborot texnologiyalari fani misolida), dissertatsiya//Guliston.

⁶ Vygotsky L.S., (1978), Mind in Society: The Development of Higher Psychological Processes. Harvard University Press.

⁷ Anderson L.W., Krathwohl D.R., (2001), A taxonomy for learning, teaching, and assessing: A revision of Bloom's taxonomy of educational objectives. New York: Longman.

⁸ Mustafa Of, Ismail Kiliçaslan, Eğitimde Öğrenme Teknikleri: Buluş Yoluyla Öğrenmenin Temel Esasları, Güçlü ve Zayıf Yönleri, International Journal of Social and Humanities Sciences Research, 2023.

⁹ Крахт Л.Н. Развитие навыков самостоятельной работы студентов на основе компьютерных технологий, материалы конференций, Фундаментальные исследования № 1, 2006,

Mustaqil ta'limning maqsad va vazifalari.

Professor-o'qituvchining roli talabalarda o'z-o'zini rivojlantirish, mustaqil bilim olish va innovatsion faoliyatni shakllantirishga imkon beruvchi ko'nikma va malakalarni egallash maqsadi bilan bog'liqlikda mustaqil ishni tashkil etishda namoyon bo'ladi.

Talabaning roli professor-o'qituvchi rahbarligida tashkil etish jarayonida bilim, ko'nikma va malakalarni mustaqil egallash, muammoni shakllantira olish va uni hal etishning optimal yo'lini izlab topishga qobiliyatli ijodkor shaxs bo'lishda aks etadi.

Mustaqil ish quyidagi vazifalarni muvaffaqiyatli hal etishga imkon berishi lozim:

- 1) talabalarda o'quv dasturini o'zlashtirishga doir motivatsiyani hosil qilish;
- 2) ta'lim oluvchilarda bilim olishga doir mas'uliyatni oshirish;
- 3) talabalarda umumiy va kasbiy layoqatlarni rivojlantirishga imkon berish;
- 4) ta'lim oluvchilarda mustaqil bilim olish, o'z-o'zini boshqarish va o'z-o'zini rivojlantirishga qobiliyatlilikni shakllantirish uchun sharoit yaratish.

N.I.Adizova o'zining "Mustaqil ta'lim: ko'rsatmalar" nomli metodik qo'llanmasida "*Mustaqil ta'lim* – muayyan fandan o'quv dasturida belgilangan hamda talaba tomonidan o'zlashtirilishi lozim bo'lgan bilim, ko'nikma va malakalarni shakllantiradigan, o'zlashtirish darajasini amalga oshiriladigan ta'lim shakllaridan bo'lib, o'qituvchi maslahati va tavsiyalari, bilimlar taqsimotiga tayyorgarligi asosida auditoriyadan tashqarida bajariladi"¹ deb ta'rif keltiradi. Bunda mustaqil ta'lim tushunchasi o'ziga xos bo'lgan xususiyati anglashilmoqda. Chunki aynan talabalar uchun mustaqil ta'lim olish tushunchasi bu uning faqat o'quv dasturida belgilangan ma'lum fan yuzasidan ma'lum vazifalarni bajarishinigina nazarda tutmaydi. Balki talabaning ham darsda, ham darsdan tashqarida mustaqil o'qib o'rganishini ham o'z ichiga oladi. Shuningdek, aksariyat ta'lim oluvchilar va ba'zida ta'lim beruvchilar orasida ham mustaqil ta'lim haqidagi tushunchalari turlicha anglashiladi. Ularning nuqtai nazaricha, mustaqil ta'lim faqat auditoriyadan tashqarida bajariladi. Asl-

ida esa, mustaqil ta'lim nafaqat auditoriyadan tashqarida, balki auditoriyada ham bajariladigan ta'lim olish shakli hisoblanadi. Ushbu fikrlarimizni dalillash uchun quyidagi ma'lumotlarni keltiramiz.

Mustaqil ta'lim olish shakli ikki xil ko'rinishda bo'ladi:

- a) Auditoriyadagi mustaqil ta'lim;
- b) Auditoriyadan tashqaridagi mustaqil ta'lim.

Zero, "Talabalarining fandan bilimlarni o'zlashtirganlik darajasi auditoriyada o'zlashtirgan bilimlar yordamida aniqlanibgina qolmasdan, balki unda auditoriyadan tashqari olgan bilimlarining ham o'z salmog'i bor"².

Auditoriyada amalga oshiriladigan mustaqil ishlar o'z navbatida ikki turga ajratiladi:

- 1) ma'ruza mashg'ulotlarida bajariladigan mustaqil ishlar;
- 2) amaliy mashg'ulotlarda bajariladigan mustaqil ishlar.

Auditoriyadan tashqarida bajariladigan mustaqil ishlar esa quyidagi turlarga ajratiladi:

- 1) konspektlashtirish;
- 2) adabiyotlardan referat tuzish;
- 3) kitob va maqolalarga annotatsiya yozish;
- 4) doklad, referat va nazorat ishi.

"Talabalar bilan bog'liq muammo shundaki, ular doimo o'qish va mustaqil ishlash istagiga ega emaslar. Bu holat jarayonning samaradorligiga bevosita ta'sir qiladi"³. Kredit-modul tizimida o'tilgach, auditoriya soatlari qisqartirilib, mustaqil ta'lim soatlari oshirildi. Ammo hamma talabalar ham bundan unumli foydalanmaydi. "Mustaqil ta'lim auditoriya soatlarini qisqartirilishini va mustaqil tayyorlanish uchun vaqtni ko'paytirilishini nazarda tutadi. Bu kamchilik deb hisoblanishiga sabab – mustaqil ta'lim

² Qulmamatov S.I., (2008), Mustaqil ta'limni tashkil etishda kompyuter texnologiyalaridan foydalanish metodikasi (Informatika va axborot texnologiyalari fani misolida), dissertatsiya//Guliston.

³ Битибаева Ж.М., Лебедева Л.А., Жексенбаева Г.А, Формирование навыков самостоятельной работы студентов в процессе смешанного (онлайн и оффлайн) обучения в педагогическом ВУЗе, // Известия. серии «Педагогические науки». Том 67, № 4 (2022),

¹ Adizova N.I., Mustaqil ta'lim: ko'rsatmalar//metodik qo'llanma, Buxoro, 2023-yil, 4-bet

uchun ajratilgan vaqtni talaba doimo ham o'qishga ajratmasligi mumkin"¹.

Mustaqil ta'lim olishni xalqaro miqyosida kuzatganimizda yondashuvning, mexanizmining butunlay boshqacha ekanligining guvohi bo'lamiz. Masalan, The Times Higher Education tashkilotining 2024-yil uchun reytingida Top-300 ro'yxatda ikkinchi o'rinda turgan Kembrij (University of Cambridge, Buyuk Britaniya) universiteti ta'lim tizimini o'rganganimizda, mustaqil ta'lim olishning yuqori darajada ekanligi yaqqol ko'rinadi. Kembrij universitetining talabalarini mustaqil ta'limga yo'naltirish tizimi quyidagi usullarga asoslangan:

- supervision (nazorat) darslari;
- mustaqil tadqiqot;
- esse (yoki maqola) yozish;
- seminarlar va munozaralar;
- raqamli ta'lim resurslari va h.k.

Ushbu yondashuvlar talabalarga mustaqil fikrlash, chuqur tahlil qilish, tanqidiy fikr yuritish va o'z bilimini mustahkamlash imkonini beradi.

Mustaqil ta'lim tushunchasining mazmunini yoritish uchun ushbu sohada ilmiy-tadqiqot olib borgan tadqiqotchilar bu tushunchaga turlicha ta'rif beradi.

Mustaqil ta'lim – olingan bilim, ko'nikma va malakalarni mustahkamlash, qo'shimcha ma'lumot yoki materialni mustaqil o'rganish maqsadidagi o'quv shaklidir². Mustaqil ta'lim talabalar tomonidan u yoki bu fan bo'yicha dastur materiallaridan bir qismining mustaqil o'zlashtirilishi hisoblanadi.

Mustaqil ta'lim — bu o'quvchilarga o'z-o'zini boshqarish, o'z vaqtida va samarali tarzda o'rganish imkonini beruvchi ta'lim yondashuvidir. U o'quvchilarga ta'lim jarayonining barcha bosqichlarini, masalan, o'rganishning davomiyligini, materiallarni qayta ko'rib chiqishni, baholashni va o'z-o'zini sinashni mustaqil ravishda boshqarish imkoniyatini beradi³. Musta-

qil ta'limda talabalar o'zlariga kerakli resurslarni tanlab, o'z qobiliyatlaridan kelib chiqib o'rganishlari mumkin. Bu usul ta'limni individuallashtiradi. Bunday yondashuv, ayniqsa, texnologiyalar rivojlangan hozirgi davrda manba to'plashda samarali bo'ladi.

"Mustaqil bajarish uchun taklif qilingan ish talabalarining kognitiv qobiliyatlariga mos kelishi kerak. Mustaqil ish uchun topshiriqlar o'quv materiallari va AKT texnik vositalari orqali o'quvchilarning o'quv motivatsiyasi darajasini oshirishga qaratilgan bo'lishi kerak⁴.

Mustaqil ta'lim – o'quv jarayonining ajralmas qismi bo'lib, talabaning muayyan fanga oid xususiy kompetensiyalarni egallash va rivojlantirish, mustaqil fikrlash, masala va muammoli vaziyatlarni tahlil qilish va yechimini izlash, uni taqdim etish ko'nikmalarini egallash hamda auditoriyada olingan bilim, ko'nikma va malakalarini mustahkamlash, qo'shimcha ma'lumot va materiallarni mustaqil o'rganishga qaratilgan muhim o'qitish shakli⁵.

Mustaqil ta'lim haqidagi fikrlarimizni umumlashtirgan holda, biz shunday ta'riflaymiz. *Mustaqil ta'lim* – bu shaxsning kognitiv faoliyati asosida bilimlarni mustaqil ravishda izlash, tahlil qilish va o'zlashtirish jarayoni bo'lib, u nafaqat ma'lumotlarni o'zlashtirishni, balki ularni tahlil qilish, qo'llash va yangi bilimlar yaratish ko'nikmalarini shakllantirishni ham o'z ichiga oladi. Ushbu jarayon inson tafakkurining intellektual mustaqilligini rivojlantiradi va bilimlarni ongli ravishda boshqarish hamda o'z-o'zini o'qitish strategiyalarini takomillashtirishga xizmat qiladi.

Tadqiqotimiz yuzasidan olib borayotgan izlanishlarimiz davomida quyidagi savollar yaqqol ko'zga tashlanmoqda: Aslida, mustaqil ta'lim olish nega kerak? Mustaqil ta'lim olish natijasida qanday kompetensiyalar shakllanadi? Mustaqil ta'lim qanday maqsadlarda olinadi?

¹ Аллаярова, С. Н. (2021). Талабаларни илмий тадқиқотга йўналтиришнинг долзарб масалалари // Монография.- Тошкент, Инновацион ривожланиш нашриёт-матбаа уйи, 2022. -74 б

² Zaripov L., Tohirov Z., To'xtayeva M., Mustaqil ta'limni tashkil etish va baholash//metodik qo'llanma, T.- Yetakchi nashriyoti/ - 2024, -3 b.

³ Abdullaeva N.S., M.I.Tashmukhamedov, Ta'limda sun'iy intellektni qo'llashning zamonaviy usullari. Toshkent: Ta'lim va ilmiy-texnik nashriyoti. 2020-y

⁴ Битибаева Ж.М., Лебедева Л.А., Жексенбаева Г.А., (2022) Формирование навыков самостоятельной работы студентов в просессе смешанного (онлайн и оффлайн) обучения в педагогическом ВУЗе, // Известия. Серия: Педагогические науки. Том 67, № 4 (2022).

⁵ Аллаярова С.Н. (2021). Талабаларни илмий тадқиқот фаолиятига йўналтиришнинг долзарб масалалари. // "Замонавий таълим" - "Современное образование" илмий-амалий оммабоп журнали (Ўзбекистан), № 5 (102), 17-25 б.

Biz ushbu savollarga quyidagicha javob bermoqchimiz:

- **shaxsiy rivojlanish va bilimni kengaytish uchun** (dunyoqarashni kengaytirish, rivojlantiruvchi mashg'ulotlar bilan band bo'lish, bilimni oshirish);

- **kasbiy rivojlanish uchun** (kasb malakasini oshirish, yangi kasb o'rganish, ilmiy yoki texnikaviy bilimlarni kuchaytirish);

- **oliy ta'limda o'qishni davom ettirish va ilmiy tadqiqotlar olib borish uchun** (o'zi qiziqqan yo'nalishning imtihon fan bloklari bo'yicha qo'shimcha dars olish, oliy ta'lim muassasasida tahsil olish davrida fanlarni o'zlashtirish, tezis va maqolalar, kurs ishlari, BMI, dissertatsiya yozish);

- **yangi texnologiyalar va innovatsiyalar bilan tanishish uchun** (qiziqish va ehtiyojdan kelib chiqib mustaqil o'rganish);

- **boshqa bir tilni o'rganish uchun** (chet tilini repetitor ko'magida yoki mustaqil shug'ullanish orqali o'rganish);

- **ijodiy va san'at sohasida rivojlanish uchun** (qobiliyati va qiziqishidan kelib chiqib qo'shimcha shug'ullanish va o'zini kelishtirish) va h.k.

Talabalarga mustaqil ish (ta'lim)ni bajarish yuzasidan kafedra professor-o'qituvchilari tomonidan metodik tavsiyalar beriladi. Fanning xususiyatidan kelib chiqib mustaqil ta'lim turlari fan o'qituvchisi tomonidan ishlab chiqiladi.

Mustaqil ta'lim fanni o'zlashtirishga, mustaqil bilim olish va mehnat faoliyatiga yo'naltirilgan bo'lib, o'quv materiallarini ishlab chiqish va ularni amalda tatbiq etish uchun muhim ahamiyatga ega. Shuning uchun mustaqil ta'lim tizimi o'quv materiallari talabalarining fanga tegishli faoliyat usuli bo'yicha nazariy ma'lumotlar bilan bir qatorda yetarli bilim va ko'nikmalarga ega bo'lishlari uchun turli xildagi, hajmdagi va murakkablikdagi topshiriqlarni qamrab olishi kerak.

Talabalarda mustaqil ta'lim olish ko'nikmasi shakllanishida professor-o'qituvchilarning o'rni katta. Masalan, o'qituvchi talabalarga keyingi amaliy yoki seminar dars-mashg'uloti uchun vazifa berayotganda, uning vazifa berish usuli juda muhim sanaladi. Talabalarga adabiyotlar ro'yxatini taqdim etishi, vazifani aniq berishi kerak bo'ladi. Vazifani qabul qilib olgan talaba o'zining harakat strategiyasini ishlab chiqa oli-

shi lozim. Ana shunda uning vazifani to'g'ri va yaxshi bajarishi koeffitsiyenti yuqori bo'ladi.

Xulosa va takliflar.

Zamonaviy pedagogik metodlar va texnologiyalar yordamida talabalar o'z bilimlarini yanada kengaytirib, o'z-o'zini boshqarish va tanqidiy fikrlash ko'nikmalarini shakllantiradilar. Mustaqil ta'lim olish jarayonini samarali tashkil etish, pedagoglarning asosiy vazifalaridan biri bo'lib, bu o'z navbatida talabalarni ta'lim olishda faollashtiradi, ularning yuqori natijalarga erishishiga yordam beradi. Talabalarda mustaqil ta'lim olish ko'nikmasi shakllanishida professor-o'qituvchilarning o'rni katta. Masalan, o'qituvchi talabalarga keyingi amaliy yoki seminar dars-mashg'uloti uchun vazifa berayotganda, uning vazifa berish usuli juda muhim sanaladi. Talabalarga adabiyotlar ro'yxatini taqdim etishi, vazifani aniq berishi kerak bo'ladi. Vazifani qabul qilib olgan talaba o'zining harakat strategiyasini ishlab chiqa olishi lozim. Ana shunda uning vazifani to'g'ri, yaxshi bajarishi koeffitsiyenti yuqori bo'ladi.

Tadqiqot ishimizdan olingan xulosalardan quyidagilarni aytib o'tmoqchimiz:

1. Mustaqil ta'lim olish ko'nikmalarini rivojlantirish talabaning akademik muvaffaqiyatini oshirishda, shuningdek, uning shaxsiy va professional rivojlanishida katta ahamiyatga ega.

2. Mustaqil ta'lim olish ko'nikmalarini rivojlantirishni oliy ta'limning bakalavr bosqichiga qabul qilingan 1-kurs talabalaridan boshlash maqsadga muvofiq.

3. Talabalarga 1-semestr davomida mustaqil ta'limning nima ekanligi, qanday qilib mustaqil ta'lim olish mumkin, qanday manba, vosita va usullardan foydalangan ma'qulligi haqida tizimli tushuntirish berib borish kerak bo'ladi.

4. Mustaqil ta'lim olishda onglik tamoyili muhim rol o'ynaydi.

Shuningdek, quyidagi **takliflarni** keltiramiz:

1. Hozirgi kunda zamonaviy pedagogikada mustaqil ta'lim olishning o'ziga xos bo'lgan innovatsion mexanizmlarini tatbiq etish lozim;

2. Auditoriyadan tashqari mustaqil ta'lim olishda zamonaviy axborot kommunikatsiyalardan foydalangan holda ta'lim olish shakllariga amal qilish.

Adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasi "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni yangi tahriri, 18-modda, 2020-yil 23-sentabr.
2. O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida, PF-5847-son, 2019-yil 8-oktabr.
3. "Oliy ta'limning davlat ta'lim standarti. Asosiy qoidalar" O'zbekiston Respublikasining davlat standartini tasdiqlash to'g'risida"gi 35-son buyruq
4. Солостина Т.А. Обеспечение качества образования студентов средствами самостоятельной работы. Журнал «Науки об образовании» Ст.29-31
5. Соколова Е.Ю. (1998), Самостоятельная работа в процессе подготовки информационно-библиотечных кадров в вузах культуры, автореферат//Москва.
6. Власова И.М. (2006) Организация внеаудиторной самостоятельной работы студентов колледжа с использованием дистанционных технологий: на примере учебной дисциплины "Информатика", автореферат//Москва.
7. Вербицкий А.А. (1991). Активное обучение: контекстуальный подход. Педагогика//Москва.
8. Беспалко, В.П. (1989). Компоненты обучения и дидактические системы. Педагогика//Москва.
9. Qo'chqarov M.U. (2019) Talabalarda mustaqil ta'lim olish ko'nikmalarini rivojlantirish nazariyasi va texnologiyasi, avtoreferat//Nukus.
10. Qo'ysinov O.A. (2008), Kasb ta'limi yo'nalishi bakalavr o'qituvchilarni tayyorlashda mustaqil ta'limning ilmiy-metodik asoslari, avtoreferat//Toshkent.
11. Qulmamatov S.I. (2008), Mustaqil ta'limni tashkil etishda komputer texnologiyalaridan foydalanish metodikasi (Informatika va axborot texnologiyalari fani misolida), dissertatsiya//Guliston.
12. Vygotsky L.S. (1978), Mind in Society: The Development of Higher Psychological Processes. Harvard University Press.
13. Anderson L.W., Krathwohl D.R. (2001), A taxonomy for learning, teaching, and assessing: A revision of Bloom's taxonomy of educational objectives. New York: Longman.
14. Mustafa Of, Ismail Kılıçaslan, Eğitimde Öğrenme Teknikleri: Buluş Yoluyla Öğrenmenin Temel Esasları, Güçlü ve Zayıf Yönleri, International Journal of Social and Humanities Sciences Research, 2023.
15. Крахт Л.Н. Развитие навыков самостоятельной работы студентов на основе компьютерных технологий, материалы конференций, Фундаментальные исследования №1 2006
16. Adizova N.I. Mustaqil ta'lim: ko'rsatmalar//metodik qo'llanma, Buxoro, 2023-yil, 4-bet
17. Битибаева Ж.М., Лебедева Л.А., Жексенбаева Г.А. Формирование навыков самостоятельной работы студентов в процессе смешанного (онлайн и оффлайн) обучения в педагогическом ВУЗе, // Известия. серии «Педагогические науки». Том 67 № 4 (2022)
18. Аллаярова С.Н. (2021). Талабаларни илмий тадқиқотга йўналтиришнинг долзарб масалалари // Монография. - Тошкент, Инновацион ривожланиш нашриёт-матбаа уйи, 2022. - 74 б.
19. Zaripov L., Tohirov Z., To'xtayeva M. Mustaqil ta'limni tashkil etish va baholash// metodik qo'llanma. - T.: Yetakchi nashriyoti, 2024. - 3 b.
20. Abdullaeva N.S., Tashmukhamedov M.I. Ta'limda sun'iy intellektni qo'llashning zamonaviy usullari. - Toshkent: Ta'lim va ilmiy-texnik nashriyoti. 2020.
21. Аллаярова С.Н. (2021). Талабаларни илмий тадқиқот фаолиятига йўналтиришнинг долзарб масалалари. // Современное образование (Узбекистан), (5 (102)), 17-25.